

AXBOROT XURUJLARINING JAMIYAT SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Abdullayeva Nargiza Abdufattayevna

Chust 2-son politexnikumi Informatika va axborot texnologiyasi fani katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XXI asrda globallashuv va globalizasiya sharoitida ommaviy madaniyatning kuchayishi, inson ahloqiy dunyosining inqirozi, etosfera sofligining buzilishi muammolari falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Virtual reallik ommaviy madaniyatning asosiy quroliga aylanib insonlarni manqurt (zombi)sha aylantirishi, insoniy munosabatlar ziddiyatlar kelib chiqishiga, behayollik, jangarilik, buzuvchilik va vahshiylikni targ'ib qilinishi va oddiy holatga aylanshi maqolaning asosiy muammo obyektidir.*

Kalit so'zlar: *virtual reallik, axloqiy ong, globallashuv, ommaviy madaniyat, axloq, ijtimoiy ong, internet, etika.*

Axborot sohasidagi globallashuv qanchalik yuqori cho'qqisiga chiqqaniga bugungi kunda millionlab yoshlarning internetdan internetdan foydalanishga o'tganligi va o'z kasbining ustalarini internet tarmog'i orqali mablag' ishlab topayotganidan ham anglash mumkin. Shunday chigal va murakkab sharoitda biz uchun galdagi yeng muhim vazifalardan biri - yosh avlodning ongi hamda qalbini yot g'oyalardan, mafkuraviy tahdidlardan asrab-avaylashdir.

Shuni hisobga olgan holda, internet tizimi orqali ma'naviy targ'ibot ishlarini, jumladan, elektron kitobxonlikni kuchaytirishi zarur. Nega deganda, biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz [1.592].

Axborotlashgan jamiyatda aholini, ayniqsa yoshlarni kiberjinoyatchilikdan himoya qilish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Inson ma'naviy qiyofasini saqlab qolish, uning axloqiy ongini kiberhujumlardan saqlash dolzarbligicha qolmoqda. Shuni alohida ta'kidlash jozki, hozirgi davrda hech bir mamlakat bunday xavf-xatarga qarshi yolg'iz o'zi qarshilik ko'rsatishi juda qiyindir. Bunday sharoitda xalqaro hamkorlikni kengaytirish, globallashuv vositalaridan ayni damda foydalanish, kiberjinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashish zaruratga aylandi.

Ilmiy tadqiqotlarda hozirgi texnologik inqilob ayni paytda ham ijobiy, ham salbiy natijalarga olib kelayotganligi, chunonchi, kompyuter odamni ijobiy fikrlashdan mahrum qilib qo'yishi to'g'risidagi ba'zi fikrlarga duch kelamiz. Ularning birida shunday fikr bildiriladi: "bugungi odam kompyuter yonida texnik funksiyani bajaruvchiginadir. Boshqacha aytganda, u kompyuterni yemas, kompyuter uni boshqaradi. Kompyuter go'yoki uning tanasining ajralmas bir bo'lagiga aylanib qoladi. Shu bois uning bilimi kam bo'ladi. Unga ko'pgina tarixiy, texnik ko'nikmalarni ijobiy faoliyatning keragi bo'lmay qoladi. Bunday odamni qotib qolgan odam deb atash mumkin" [2.6].

Yuqoridagi fikrlarga biz to'la qo'shilamiz. To'g'ri, texnika taraqqiyoti bilan inson tafakkuri taraqqiyoti o'rtasida ziddiyatlar bor va ular bundan keyin ham davom yetadi. Yuksak texnologiya, eng avvalo, inson tafakkuri taraqqiyotining mahsuli. Shu bilan birga bu hosila narsa tafakkurning yeng sirli raqobatchisidir. Ammo bu raqobat salbiy emas, balki ijobiydir. Tafakkur va texnika kashfiyotlari o'rtasidagi raqobat inson tafakkurini orqaga so'rmaydi,

aksincha, uni yanada yuksaklikka ko'tarishga undaydi. Inson shu tariqa yanada chuqurroq, yanada kengroq fikrlashga majbur bo'ladi.

Ikkinchi tomondan, tafakkur taraqqiyoti tabiat kabi cheksizdir. Uni to'xtatadigan, orqaga buradigan bir kuch dunyoda yo'q. Uning miyasi ham tabiatning ajralmas bir bo'lagi. Shuning uchun u inson va tabiat o'rtasidagi munosabat faollashgan sayin yanada cheksiz, hududsiz rivojlanib boraveradi. Faqat texnika taraqqiyotini yaratuvchilardan yemas, balki ularni ishga soluvchilardan aql-idrok yuksakligi, diyonat hukmi, vijdon amali talab qilinadi. Chunki texnika kashfiyotlaridan ezgu maqsadlar uchun ham, yovuz maqsadlar uchun ham foydalanish mumkin.

Zamonaviy aloqa vositalari, jumladan internetdagi ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining munosabatlari va taraqqiyotning bu mahsulidan foydalanish xususida ko'p gapirildi. Yangi virtual olamning rivojlanishi insonda ortiqcha, aqlga sig'mas, hyech bir ahloq qoidalariga to'g'ri kelmaydigan xoxish-istaklarni keltirib chiqarmoqda. Virtual olamda tanishish, do'stlashish va xatto nikoh tuzilish holatlari kuzatilmoqda. Ayni damda ommalashib borayotgan holat virtual nikoh haqida to'xtalsak.

"Axborotlashgan jamiyat" deb nom olgan XXI asrda global tarmoqdagi xabarlar oqimi va sig'imi yaqin yaqin vaqtlar ichidagi zamonaviy odam bo'lgan Homo Sapiyensni, kommunikasion aloqalar ichidagi inson, ya'ni - Homo Virtusga o'zgartirib qo'yishi mumkinligi haqidagi farazlar tadqiqotchilar o'rtasida qizg'in muhokama qilinmoqda [3. 15]. Hattoki ba'zi tadqiqotlarda "homo virtus", "digital natives", "net generation", "the millenials" kabi tushunchalar virtual makonda yashovchi ijtimoiy subyekt va virtual borliqdagi axborotning asosiy iste'molchilari, deb ta'kidlanmoqda [4. 159].

Hukumatimiz tomonidan fuqarolarning vaqtini tejash, ularda chiqarilayotgan qonunlarga hurmat hissini uyg'otishga qaratilgan turli xildagi chora tadbirlar ko'rilmqda. Bunda yaqindan internet tizimi komakchilik qilmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqdagi kanallari, internet tarmog'idagi saytlar (lex.uz, my.gov.uz va boshqalar)ni misol keltirishimiz mumkin. "Elektron hukumat" tizimi internet tarmog'idan oqilona foydalanishning natijasi o'laroq yuzaga keldi. Bu tizimning ahamiyati va uni rivojlantirish to'g'risida davlatimiz rahbari shunday fikrni bildirdi: "Yelettron hukumat"ni tashkil yetish dasturi doirasida biznes va axoliga elektron tizimlar, shuningdek, "yagona darcha" tizimi orqali barcha davlat xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda internetdan foydalanish konikmalari fakultativ dars sifatida maktab dasturiga kiritila boshladi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma'lumotlarning qanchalik haqqoniy va to'g'ri ekanini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o'smirlar uchun zarur. Internetda grifingdan tashqari o' smir yoshlar uchun yana bir qancha xavflar ham bor. Ya'ni bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, ekstremistik xarakterdagi sekta va uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'ligiga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib kelishi tabiiy.

Axborot asri bo'lgan XXI asrda insoniyatning virtual olam bilan bog'langanlik darajasi oshib bormoqda. Virtual reallik orqali inson qabul qilayotgan informatsiya miqdori oshib, ba'zi bir holatlarda inson ularni analiz qilishga qodir bolmay qolmoqda.

Internet (International Network— xalqaro kompyuter tarmog'i) butundunyoni qamrab qolgan global kompyuter tarmog'idir. Hozirgi kunda Internet dunyoning ko'plab (150 dan ortiq) mamlakatlarida 100 millionlab abonentlarga yega. Internet dastlab faqat tadqiqot va o'quv yurtlariga xizmat qilgan bo'lsa, u ishlab chiqarish doirasida ham keng tarqalmoqda. Internet bir qancha qulayliklarga yega yekanligi bilan ajralib turadi. Bular tarmoqning tezkorligi, arzonligi, aloqaning keng qamrovli ekanligidir.

Postnoklassik fanlarda sinergetika, virtualistika, global evolyusionizm, inson muammosi yangi shaklanayotgan postnoklassik tafakkur tarzining xarakterli jihatiga aylanli. [6.21]. Umuman olganda internet vaqtni va mablag'ni tejashga yordam berishidan tashqari axborotlarni juda tez uzatish va qabul qilish, kerakli ma'lumotlarni juda tez izlab topish, uzogimizni yaqin qilish, onlayn suhbatlar qilish, dunyo voqyalaridan qisqa fursatlarda xabardor bo'lish kabi ko'plab imkoniyatlarni yaratib beradi.

Inson internet olamida o'zini istagan qiyofada, hohlagan holatda namoyon qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan inson internet olamida, ya'ni virtual reallikda "menga hamma narsa ravo" g'oyasi asosida ish tuta boshladi. Har bir qiladigan ishini konstitutsiya va qonunlar bilan tartibga solinib turiladi, ammo virtual olam qonuniyatlari ba'zida real olam qonunlariga zid tarzda harakat qilishini ko'rmoqdamiz. Virtual reallikda bo'ladigan voqyea hodisalarga insonda birinchi taqlid paydo bo'ladi. Lekin inson psixikasidan bizga ma'lumki, u har doim "minus" tomonini tez ko'radi va tez o'zlashtiradi. Fikrimizning isboti sifati quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. Shunday ekan, o'zbek xalqini tanlagan yo'lidan chalg'itish uchun internet orqali qilinayotgan mafkuraviy xurujlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz, -T.: "O'zbekiston", 2018. - B.592.
2. Ermatov H. Insoniyat dard qidirmog'dami, darmon? //Muloqot,2000, 6-son, -B.6.
3. Плешакова В. Кибер онтология и психология безопасности информатсионной сферы: аспекты киберсотсиализатсии человека в сотсиальных сетях Интернет среды // Вестник, 2014. -С. 15.
4. Королева Н. Семио сфера личности. Санкт- Петербург , 2005. -С. 159.
5. Кушаков Ш.С. Фейковая модел дезинформации как разновидност симулякора // Yoshlarni g'oyaviy tarbiyalashning dolzarb masalalari. Talabalar ongida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materilalari. Samarqand, 2019. - S 19-21.
6. Sultanova G.S. The essence and nature of postnonclassical scientific thinking. «Школа Науки» • № 3 (14) • Февраль 2019 .. «School of Science» • № 3 (14) • February 2019", 2019. - P. 21-23.